



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ismailov Erkin Faxretdinovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda tashqi savdoning mohiyati, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, ayniqsa kichik biznes uchun eksport-import operatsiyalarining o'ziga xos jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, xalqaro savdo nazariyalari, jumladan qiyosiy ustunlik nazariyasi, global qiymat zanjirlari konsepsiyasi hamda raqobatbardoshlik omillari asosida kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tashqi savdo faoliyati, eksport, import, raqobatbardoshlik, qiyosiy ustunlik, global qiymat zanjirlari, tashqi bozorlar, savdo siyosati, tarif va notarif to'siqlar, valyuta risklari, eksport salohiyati, logistika infratuzilmasi, raqamli savdo, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyalar, iqtisodiy integratsiya, xalqaro savdo nazariyalari.

Abstract. This study provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations for the development of foreign trade activities of small business entities. The research examines the essence of foreign trade, its role and significance in the national economy, and the specific features of export-import operations for small businesses. Furthermore, based on international trade theories, including comparative advantage, global value chain concepts, and competitiveness factors, the opportunities for small business entities to enter foreign markets are systematically analyzed.

Key words: small business, foreign trade activity, export, import, competitiveness, comparative advantage, global value chains, foreign markets, trade policy, tariff and non-tariff barriers, currency risks, export potential, logistics infrastructure, digital trade, financial support, investments, economic integration, international trade theories.

Аннотация. В данной научной работе комплексно проанализированы теоретические основы развития внешнеторговой деятельности субъектов малого бизнеса. В исследовании раскрыта сущность внешней торговли, её роль и значение в национальной экономике, а также особенности экспортно-импортных операций для малого бизнеса. Кроме того, на основе теорий международной торговли, включая теорию сравнительных преимуществ, концепцию глобальных цепочек создания стоимости и факторы конкурентоспособности, системно проанализированы возможности выхода субъектов малого бизнеса на внешние рынки.

Ключевые слова: малый бизнес, внешнеторговая деятельность, экспорт, импорт, конкурентоспособность, сравнительные преимущества, глобальные цепочки создания стоимости, внешние рынки, торговая политика, тарифные и нетарифные барьеры, валютные риски, экспортный потенциал, логистическая инфраструктура, цифровая торговля, финансовая поддержка, инвестиции, экономическая интеграция, теории международной торговли.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning tashqi savdo faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda raqobat muhitining kuchayishi kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish zaruratini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, eksport-import operatsiyalarining kengayishi ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tashqi savdo faoliyatida kichik biznes subyektlari duch kelayotgan muammolar – moliyaviy resurslarning cheklanganligi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tashqi bozorlar haqidagi axborotning yetishmasligi ularning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda.



Mazkur sharoitda kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xalqaro savdo nazariyalari, xususan qiyosiy ustunlik, raqobatbardoshlik va global qiymat zanjirlari konsepsiyalariga tayangan holda kichik biznesning tashqi bozorlarga integratsiyalashuv mexanizmlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini tizimli ravishda yoritishga, mavjud muammolarni aniqlashga hamda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L. Ibragimovaning fikriga ko'ra, kichik biznesni shartli ravishda ikki toifaga ajratish mumkin: faoliyat yuritayotgan va endi shakllanayotgan. Endi shakllanayotgan kichik biznes yuqori risk darajasi bilan ajralib turadi. Bunday biznes odatda turli resurslarning yetishmasligi sharoitida, xususan, malakali kadrlar taqchilligidan tortib moliyaviy mablag'lar yetishmasligigacha bo'lgan omillar ta'sirida shakllanadi¹.

D. Vavilov va A. Kurganskiy ta'kidlashicha, kichik va o'rta biznesga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri yuqori risk darajasidir. Ushbu risklar, asosan, kichik biznes faoliyatining yetarli darajada shaffof emasligi hamda garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar bilan izohlanadi².

Ye. Lysakovskayaning xulosasiga ko'ra, kichik biznes subyektlariga berilayotgan kreditlar odatda yuqori foiz stavkalariga ega bo'lib, ularning muddati qisqa, ko'pincha bir yilgacha bo'ladi. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit ajratish jarayonida mijozning pul oqimlarini nazorat qilish hamda ta'sischi kafiligini talab qilish orqali risklarni boshqarishga intiladi³.

F. Allen va D. Geyl kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning ikki asosiy modeli mavjudligini qayd etadi: bank tizimiga asoslangan model hamda moliya bozorlariga asoslangan model. Ularning fikricha, bank tizimiga asoslangan model kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi⁴.

D. Snayder va T. Brayen tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida kredit skoringi modellarining ayrim jihatlarini takomillashtirish zarurligi aniqlangan. Xususan, bank xodimlarining ushbu modellar asosida strategiya ishlab chiqish va boshqarish bo'yicha malakasini oshirish, boshqaruv axborot tizimlarini takomillashtirish, skoring modellarini qo'llashdan oldin ularning samaradorligini baholash hamda ularni muntazam ravishda monitoring qilish muhimligi ta'kidlanadi⁵.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda tijorat banklari yetakchi o'rin egallaydi. Ular tomonidan muddatli kreditlar, lizing kreditlari va kredit liniyalari kabi moliyaviy instrumentlar keng qo'llaniladi⁶.

Sh. Reyno va E. Blou o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta korxonalarining yirik korxonalar bilan samarali hamkorligi ularning moliyaviy resurslarga, xususan, bank kreditlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishini asoslab bergan. Bunda yirik korxonalar hamkorlikdan oldin kichik korxonalar faoliyatini baholaydi hamda keyinchalik ularning rivojlanishini muntazam kuzatib boradi⁷.

V. Safaryanning fikricha, faktoring kichik korxonalar uchun moliyalashtirishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, u aylanma mablag'lari yetishmaydigan, ammo bozor salohiyati yuqori bo'lgan korxonalariga savdo hajmini oshirish imkonini beradi⁸.

A. Staxnyukning xulosasiga ko'ra, kichik biznes subyektlarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish, garov obyektlari sifatini yaxshilash, faoliyat shaffofligini oshirish hamda uzoq muddatli va arzon moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega⁹.

A. Gloriov va D. Mixaylovlarning xulosasiga ko'ra, tashqi savdoda mavjud iqtisodiy risklarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: tijorat risklari, ishlab chiqarish risklari, operatsion risklar, ikki tomonlama hamkorlik riski, imzo riski, kredit riski, valyuta riski, defolt riski, o'tkazma riski, moliyaviy risklar hamda yuridik risklar. Shu bilan birga, mualliflar tomonidan asosan valyuta riskiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, bozor risklarining

1 Ibragimova L. T. Финансирование и кредитование малого бизнеса в России. Правовые аспекты. Информационная система «Консультант плюс».

2 Вавилов Д.Л., Курганский А.А. Кредитование малого и среднего бизнеса: проблемы и тенденции развития//Экономика и управление, 2012. - №4. – С. 29-32.

3 Лысаковская Е.В. Проблемы и перспективы государственной поддержки малого и среднего бизнеса//Право и образование, № 5, 2006, с. 261 – 266.

4 Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – P. 42.

5 Снайдер Д., Брайен Т. Скоринг при кредитовании малого и среднего предпринимательства//Деньги и кредит. – Москва, 2011. – №10. – С. 59.

6 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 590-591.

7 Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.

8 Сафарян В.Р. Факторинг как источник финансирования малых предприятий//Деньги и кредит. – Москва, 2013. – №2. – С. 73.

9 Стахнюк А.В. Малый бизнес: проблема доступности кредитов//Деньги и кредит. – Москва, 2010. - №3. - С. 25-26.



boshqa muhim turlari – foiz riski va fond riski ham tashqi savdo faoliyatida muhim o‘rin tutishi ilmiy jihatdan asoslanadi¹⁰.

K. Chekmarev muddatli valyuta bitimlarini tashqi savdoni moliyalashtirishning samarali instrumentlaridan biri sifatida e‘tirof etadi. Uning fikricha, ushbu bozorning rivojlanishi muddatli bitimlar majmuining kengayishi, yangi derivativ instrumentlar savdosi hajmining ortishi, hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning risklarni boshqarishdagi rolini kuchayishi, chakana investorlarning faol ishtiroki, aksiyadorlik kapitalini boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi hamda bozor konsentratsiyasining ortishi bilan izohlanadi¹¹.

A. Mayek tashqi savdoni moliyalashtirishda qayta tiklanadigan kredit liniyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bunday kredit liniyalari kredit oluvchilarga import to‘lovlarini amalga oshirishda qo‘shimcha vaqt va moslashuvchanlik yaratadi¹².

S. Yevdokimovanning fikriga ko‘ra, kredit liniyasining muhim xususiyatlari qatoriga mijozning bank bilan barqaror hamkorligi, asosiy hisobvaraqlarning aynan shu bankda yuritilishi hamda pul oqimlarini tezkor monitoring qilish imkoniyati kiradi¹³.

N. Xmelevskaya xalqaro moliya institutlari amaliyotida qo‘llaniladigan Favqulodda kredit liniyasining (Contingent Credit Line) muhim xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Unga ko‘ra, mazkur instrument tashqi savdo balansidagi nomutanosibliklarni tartibga solishga, global moliyaviy beqarorlik davrida barqarorlikni ta’minlashga hamda uzoq muddatli kapital harakati bilan bog‘liq inqirozlarni yumshatishga xizmat qiladi¹⁴.

B. Pulatov xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini quyidagicha izohlaydi: kredit liniyasi ma’lum limit doirasida ochiladi, bu esa mijozga har safar kredit olish uchun alohida murojaat qilish zaruratini kamaytiradi; foizlar faqat foydalanilgan mablag‘lar uchun hisoblanadi; kredit beruvchi esa mablag‘larning maqsadli ishlatilishini samarali nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi¹⁵.

A. Gloriov va D. Mixaylovning ta’kidlashicha, tashqi savdoni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarishda turli hisob-kitob shakllari va to‘lov usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, hujjatli inkasso, sof inkasso, avansli o‘tkazmalar, stend-bay akkreditivlar, chaqirib olinmaydigan akkreditivlar hamda ochiq hisobvaraqlar orqali hisob-kitob qilish amaliyoti keng qo‘llaniladi¹⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi doirasida ma’lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda rasmiy statistik manbalarni o‘rganish orqali yig‘ildi. Xususan, kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatiga oid nazariy va amaliy ma’lumotlar tahliliy tanlash usuli asosida saralandi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Shuningdek, tashqi savdo jarayonlariga ta’sir etuvchi omillarni baholashda mantiqiy tahlil va deduktiv xulosalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyati ularning raqobatbardoshligini oshirish va bozorlarni diversifikatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, eksport faoliyati bilan shug‘ullanayotgan kichik biznes subyektlari ichki bozorga yo‘naltirilgan korxonalariga nisbatan yuqori daromadlilik va barqaror o‘shish ko‘rsatkichlariga ega. Biroq, tashqi bozorlarga chiqishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, jumladan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, eksportni moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika infratuzilmasidagi kamchiliklar hamda bojxona tartib-taomillarining murakkabligi. Ayniqsa, valyuta risklari va xalqaro narxlar o‘zgaruvchanligi kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatida noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar ham aniqlashtirildi. Xususan, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, elektron savdo platformalaridan foydalanish hamda xalqaro logistika xizmatlarining takomillashuvi kichik biznes uchun

10 Глориезов А.Г. Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. – М.: Юрайт, 2011. – С.205-206.

11 Чекмарев К.С. Инструменты срочного рынка и управление финансовыми рисками//Банковское дело. – Москва, 2007. – №8. – С. 39-40.

12 Mayek A. Banking and International Finance Risk Management in Banking//Spring Term, 2002.- P. 35.

13 Евдокимова С.С. Особенности и проблемы кредитования российскими коммерческими банками предприятий малого и среднего бизнеса // Финансы и кредит. Выпуск № 11 (635) / 2015 [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-problemy-kreditovaniya->

14 Хмелевская Н.Г. Чрезвычайные кредитные линии МВФ в системе предотвращения международных финансовых кризисов// Вестник Финансовой академии. – Москва, 2002. - №2. – С. 103-112.

15 Пулатов Б.Б.. Роль иностранных кредитных вложений в активации инвестиционной деятельности предприятий//Экономика.- Ташкент, 2013. - №3. – С. 163-169.

16 Глориезов А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. – М.: Юрайт, 2011. – С. 207-208.



yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash siyosati, soliq imtiyozlari va kredit liniyalarining kengaytirilishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini samarali rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish hamda tashqi bozorlar haqida axborot ta'minotini yaxshilash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu subyektlarning eksport faoliyatini kengaytirish nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Biroq, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, logistika tizimidagi kamchiliklar, tashqi bozorlar haqidagi axborotning cheklanganligi hamda risklarning yuqoriligi kichik biznesning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishda asosiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirish uchun bir qator amaliy takliflar ilgari suriladi. Jumladan, eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish va sug'urta instrumentlarini joriy etish zarur. Shuningdek, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda raqamli savdo platformalaridan foydalanishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari uchun tashqi bozorlar bo'yicha axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirish ularning xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni. "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi 2020–2025-yillar uchun". <https://lex.uz/docs/-4811025>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026-yillar uchun". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
3. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London, 1776.
4. David Ricardo. On the Principles of Political Economy and Taxation. — London, 1817.
5. Paul Krugman, Maurice Obstfeld. International Economics: Theory and Policy. — Pearson Education, 2018.
6. World Bank. World Development Report. — Washington DC, so'nggi nashrlar.
7. International Monetary Fund. World Economic Outlook. — Washington DC, so'nggi nashrlar.
8. World Trade Organization. World Trade Report. — Geneva, so'nggi nashrlar.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development. SME and Entrepreneurship Outlook. — Paris, 2023.
10. United Nations Conference on Trade and Development. World Investment Report. — Geneva, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi va moliyaviy barqarorlik hisobotlari. — Toshkent, so'nggi nashrlar.
12. Abdullaev Y., Karimov F. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. — Toshkent: O'qituvchi, 2021.
13. Qodirov A. Tashqi savdo iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
14. Porter M. Competitive Advantage. — Free Press, 2008.
15. Krugman P., Melitz M. International Trade Theory and Policy: New Developments. — 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
